Methodology for Teaching Modal Verbs in English Lessons	949
Kholnazarova Vazira Bozor qizi	
The Use of Mobile Apps to Build Vocabulary Proficiency	953
Kosimov Sunnat Ravshan ugli	
Disability Terminology in Uzbek: Etymological Evolution and Future Trends	957
Kuchkarova Xurshida	
Bo'lajak muhandislarni grafik dasturlar yordamida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish (muhandislik va kompyuter grafikasi fani misolida)	964
Madaminov Javlonbek Zafarjonovich	
Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda interaktiv darsliklarning pedagogik imkoniyatlari	968
Mirzaakbarov Dilshod Dovlatboyevich	
Sog'lom turmush tarzi – jismoniy madaniyati sohibi sifatida jismoniy mashqlar komplekslarini tuzish va bajarishda amal qilinadigan qoidalar	971
Musayev Zarifjon Tursunaliyevich	
Bo'lajak defektologlarning pedagogik mas'uliyatini oshirish	974
Nodira Mirboboyeva	
Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish modeli	977
Odamboyeva Mehribon Norimon qizi	
O'quvchini muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda kitobxonlikning o'rni.....	981
Qurbanova O'g'iloy Axrorovna	



Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning afzalliklari	985
Rejabboyeva Muxarram Odiljon qizi	
Pedagogik ta'lim jarayonida raqamli nazorat tizimlaridan foydalanish samaradorligi va rivojlantirish yo'nalishlari	989
Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li	
Dizatriya nutq kamchiligini bartaraf etishda muassasa, logoped va oilaning hamkorligi	992
Shermatova Yukut Sabirovna	
Kulolchilik va an'anaviy o'yinchoqlarni o'quvchilar kasb tanlash jarayonida qo'llash metodikasi	995
Soliyeva Diyora Bobur qizi	
O'zbekistonda inkluziv ta'lim va uning me'yoriy-huquqiy asoslari	998
Temirov Nabijon Soliyevich, Esonova Klaraxon Mahmamin qizi	
Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	1001
Tojibayeva Nazokatxon	
Sun'iy intellekt yordamida talaffuz va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	1005
Tojiyev Olimjon Haqberdi o'g'li	
Boshlang'ich ta'lim tizimi muammo va istiqbollari sotsiologik tadqiqotlar asosida	1008
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	
Oliy ta'lim talabalarida integrativ yondashuv asosida tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasi	1011
Xalimova Mashraboy Vaxidovna, Botirova Mavluda To'xtasin qizi	
5–6 yoshli bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda o'yinli texnologiyalarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari	1015
Xolboyeva Gulnora Ulashovna, Dolliyeva Xayrigul Namoz qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lishi psixologik fenomen sifatida	1018
Xoshimova Y. I.	
Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik va psixologik yondashuvlarning mazmuni	1023
Xudoyqulova Aziza Anvar qizi	
Pedagogik ta'limda mediakompetentlikni shakllantirish jarayonida raqamli resurslardan foydalanish samaradorligi	1026
Yuldashov Sherzod Sattorovich	
Особенности развития эмоционального интеллекта у дошкольников	1029
Жамолова Зарнигор Баходир кизи	
Стратегии лингвистического моделирования в обучении русскому языку и их роль в формировании идентичности студентов	1033
Рузметова Наргиза Ахмедовна, Рузметова Хилола Абдушориповна	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini matematik mushohada yuritishga o'rgatish	1038
Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi	
Tarbiyachi inklyuziv kompetentligi va zamonaviy ta'limda uning o'rni	1041
Haydarova Namuna	
Using Story-Based Role-Play Activities to Enhance Speaking Skills of Primary School Learners	1044
Mohigul Nizomiddinova	
Axborot va telekommunikatsion vositalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalarni badiiy qadriyatlarga qiziqtirish	1049
Soliyeva Maftuna Tirkash qizi	
Ruhiy rivojlanishning susayish sabablari va klinik xarakteristikasi	1053
Xamrayeva Iroda Sayfullayevna	
Ona tili darslarida zid ma'noli so'zlarning o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi vazifalari	1056
Xusanova Gulruxsor To'liqin qizi	
Ta'lim tizimida neyrolingvistik dasturlash (NLD)ning ilmiy-metodologik asoslari	1059
Xolikova Dilobarxon Maxsitovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari	1062
Primkulova Iroda Berdimurodovna	
Informatika o'qitishda veb texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	1067
Xatamqulova Gulsanamxon Salimjonovna	
Talabalarining ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish	1071
Esmuratov Muzaffar Elamonovich	

Bo'lajak maxsus pedagoglarni korreksion mashg'ulotlarda logotexnik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlash omillari.....	1073
Maxmudov Xurshidjon Shuxratovich	
Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash mexanizmi	1076
Oppoxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'li	
Nutqida muammosi mavjud bolalarning ijtimoiy adaptatsiya xususiyatlarini o'rganishning pedagogik asoslari	1081
Ne'matullayeva Mushtariy Laziz qizi	
Mutaxassislik modullarini integrativ o'qitishning mazmuni va shart-sharoitlari	1084
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	
Talabalarda divergent tafakkurni rivojlantirish usullari	1091
Adizova Nigora Baxtiyorovna	
Milliy tarbiya tizimida milliy tilning o'rni (jadid pedagoglari qarashlari misolida)	1096
Almuratova Gulbaxor Mansur qizi	
Kompetensiyaviy ishlab chiqarish bo'yicha pedagogika kollejlari o'quvchilarining o'quv-bilish "yaratish" faol modeli	1100
Ashirov Abdurashid Ravshanovich	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida deontologik madaniyatning tarkibiy qismlari va pedagogik, psixologik tahlili	1106
Axadova Mahliyo Xalimovna	
Scientific and Methodological Foundations of the Development of Universal Competencies of Students..	1109
Bakhtiyor Suvonkulov	
Maktabgacha 5-6 yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning yosh bilan bog'liq xususiyatlari va tarbiyachining mahorati	1113
Daminova Shoxista Farxodovna	
Gospital pedagogika – shifoxona va maktab o'rtasidagi ko'prikdir	1117
Dilmurod Alimov	
Rus tili o'qituvchilarining kasbiy faoliyati asoslari	1121
Ergashov Ma'murjon Mominjonovich	
Muhandislik ta'limida smart-ta'lim texnologiyalari va adaptiv loyihalash kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari	1125
G. Sh. Tursunova	
6–7 yoshli bolalarda ikkinchi tilni o'rgatish orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish: metodik yondashuvlar	1130
G'aniyeva Shahlo Abduqahhor qizi	
Sun'iy intellekt vositalari orqali bo'lajak o'qituvchilarda axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish	1138
Inadullayeva Sevara Qahramonovna	
Jadid adabiyotini o'qitishda dekonstruktiv yondashuv va samarali pedagogik strategiyalar	1141
Isabayeva Asida Yusufjonovna	
Kimyo ta'limida natriy va uning birikmalarini o'qitishda pinbord usulining metodik imkoniyatlari.....	1146
Iskandarov Aybek Yuldashevich, Axmedova Nargiza Rustamovna	
Sifat menejmenti zamonaviy menejmentning funksional xarakteristikasi sifatida.....	1149
Jabbarbergenova Bibimariyam Amangeldiyevna	
Development of Speed-Strength Abilities of Qualified Wrestlers in Sports Improvement Groups.....	1155
Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich. Komilov Aziz Xoshimovich	
Odam va hayvonlar fiziologiyasi fanining oliy ta'lim tizimidagi o'rni va didaktik ahamiyati	1160
Kaljanov Damir Maxsetbayevich	
Psychological Preparation of Young Judo Players Before and During Competitions	1165
Komilov Aziz Xoshimovich, Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish	1171
Komilova Farog'at Numonjon qizi	
Tarbiya innovativ metodlarining oilada tutgan o'rni.....	1176
Marimbayeva Bibidona Rinat qizi	
Tibbiyot texnikumi o'quvchilarining mustaqil ishlari orqali kognitiv ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	1180
Matchanova Malika Maxmudovna	
Pedagogik innovatsiyalar va yangi metodologik yondashuvlar: Design Thinking, Project-Based Learning, Problem-Based Learning onlayn shaklda	1183
Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon o'g'li	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy tayyorgarligi va rivojlanishidagi pedagogik shart-sharoitlar	1187
N. Sh. Djumaniyazova	
Badiiy gimnastikachilarda egiluvchanlik sifatini rivojlantirishning nazariy asoslari	1190
Nazarova Mohinur Atxam qizi	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasi	1195
Nishonova Durdona Olimjon qizi	
Politeknikumlarda "Veb dasturlash" fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	1201
Nuriddinova Gulnigor Taxirjanovna	
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (uchinchi nashri) dagi o'zgarishlar	1205
Otahanova Manzura G'ofurovna	
Sog'lom turmush tarzi vositasida oliy ta'lim muassasasi talabalarining jismoniy salomatligini pedagogik strategiyalar orqali rivojlantirish metodikasi	1210
Qayumov Shohruh Abduljalol o'g'li, Norqulov Shokir Muzzaffarovich, Karimova Mohinur Abduljalol qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida yozgi sog'lomlashtirish va chiniqtirish davrida ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini ta'minlash	1214
Qurbonova Asal Dilshod qizi	
O'quvchilarining kreativligini rivojlantirish bosqichlari	1218
Safarova Madina Azamat qizi	
Fizika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	1222
Shag'ataeva Uldanay O'serbay qizi	
Oliy ta'lim tizimida klasterli yondashuvni qo'llash orqali talabalar induktiv va deduktiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish	1227
Shermatova Saxobaxon Rahmonberdi qizi	
Milliy qadriyatlar asosida tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy yondashuvlari	1231
Sherov Dilshod Reyimberganovich	
Ta'lim jarayonida o'qituvchilarni baholashda interaktiv va moslashuvchan usullar	1236
Sayfuddinova Kavsar Rahmatulloh qizi	
Nogiron bolalarni tekshirishda psixologik-pedagogik diagnostikaning ahamiyati	1239
Umarova Sabaxon Minavvarovna, Yuldasheva Dilbarxon Turg'unovna	
Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qobiliyatini rivojlantirish	1242
Xalilova Muxlisa Ulug'bek qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bosqichlari	1247
Xayitov Jonibek Xolboboyevich	
Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini individuallashtirishning pedagogik tizimini takomillashtirish	1250
Xudoyberdiyeva Janona Rustamovna	

ODAM VA HAYVONLAR FIZIOLOGIYASI FANINING OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI VA DIDAKTIK AHAMIYATI

Kaljanov Damir Maxsetbayevich

Qoraqalpoq davlat universitetining

“Umumiy biologiya va fiziologiya” kafedrası stajyor o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Odam va hayvonlar fiziologiyasi” fanining oliy ta'lim tizimidagi didaktik va metodik ahamiyati, uning biologiya va tibbiyot fanlari bilan integratsiyasi, shuningdek, talabalarda shakllantiriladigan umumiy va kasbiy kompetensiyalar yoritilgan. Shuningdek, fan mazmunini interfaol metodlar asosida o'qitishning dolzarbligi, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rni hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: fiziologiya, oliy ta'lim, interfaol metod, kompetensiya, biologik jarayon, innovatsion yondashuv, kasbiy tayyorgarlik.

Abstract: This article examines the didactic and methodological significance of the subject “Human and Animal Physiology” in higher education. It discusses its integration with biological and medical sciences and the development of students' general and professional competencies. The paper also highlights the importance of interactive teaching methods, the role of practical skill development, and the potential of modern pedagogical technologies in enhancing educational efficiency.

Key words: physiology, higher education, interactive methods, competence, biological processes, innovative approach, professional training.

Аннотация: В данной статье раскрывается дидактическая и методическая значимость предмета “Физиология человека и животных” в системе высшего образования, а также его интеграция с биологическими и медицинскими науками. Освещаются формируемые у студентов общие и профессиональные компетенции, необходимость применения интерактивных методов преподавания, развитие практических навыков и повышение эффективности обучения за счёт современных педагогических технологий.

Ключевые слова: физиология, высшее образование, интерактивные методы, компетенции, биологические процессы, инновационный подход, профессиональная подготовка.

KIRISH

So'nggi yillarda dunyo miqyosida oliy ta'lim tizimlarini takomillashtirish va ularni zamon talablariga moslashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Ta'lim sifatini oshirish, talabalarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning amaliy ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Bu jarayonlarda innovatsion pedagogik yondashuvlar va interfaol o'qitish metodlari muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning faol ishtirokini ta'minlash imkonini beradi. Biologiya sohasidagi oliy ta'lim muassasalarida “Odam va hayvonlar fiziologiyasi” fani markaziy o'rin tutadi. Ushbu fan tirik organizmlarda kechadigan hayotiy jarayonlarni chuqur va tizimli o'rganish orqali talabalarni nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy tajriba va ko'nikmalar bilan ham ta'minlaydi. Shuningdek, u talabalarda tahliliy fikrlash, ilmiy tadqiqot olib borish va kasbiy faoliyatga tayyorlanish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois, oliy ta'limda mazkur fan o'qitishning didaktik asoslarini yanada takomillashtirish va uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitish zaruriyati mavjud.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – “Odam va hayvonlar fiziologiyasi” fanining mazmuni, oliy ta'lim tizimidagi o'rni, didaktik ahamiyati hamda ushbu fan yordamida shakllantiriladigan kompetensiyalar tizimini tahlil qilish va uni takomillashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Fiziologiya – tirik organizmlarda sodir bo'ladigan fiziologik jarayonlar, ularning tabiati, mexanizmi va o'zaro bog'liqligini o'rganadigan fan bo'lib, biologiya fanlarining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Fiziologiya orqali organizmning to'liq faoliyati, ya'ni tashqi va ichki muhit ta'siriga javoban qanday reaksiyalar ro'y berishi, energiya almashinuvi, axborotni qabul qilish va uzatish, oziq moddalarning hazm bo'lishi va o'zlashtirilishi, ichki muvozanat (homeostaz) kabi murakkab jarayonlar tahlil qilinadi [1; 3–5-b.]. “Odam va hayvonlar fiziologiyasi” fani esa, inson va hayvon organizmlarida sodir bo'ladigan fiziologik jarayonlarning umumiy va xos xususiyatlarini solishtirma asosda o'rganadi. Fan doirasida fiziologik funksiyalar hujayra, to'qima, a'zolar hamda butun tizimlar darajasida tahlil qilinadi. Shu bois, mazkur fan tizimli, ko'p bosqichli va murakkab tuzilishga ega bo'lib, organizmda kechadigan hayotiy jarayonlarning bir butunligini ochib beradi.

Fan tarkibiga quyidagi asosiy yo'nalishlar kiradi:

1. **Nerv tizimi fiziologiyasi** – markaziy va periferik asab tizimi faoliyati, impulslarning hosil bo'lishi va uzatilishi, reflektor faoliyat mexanizmlari;
2. **Qon aylanish tizimi fiziologiyasi** – yurak faoliyati, qon aylanish qonuniyatlari, qon bosimi va uning tartibga solinishi;
3. **Nafas olish fiziologiyasi** – o'pka faoliyati, gazlar almashinuvi, nafas markazining ishlashi;
4. **Hazm qilish fiziologiyasi** – oziq moddalar parchalanishi, fermentlar ishtiroki va hazm yo'lining harakat funksiyalari;
5. **Muskul fiziologiyasi** – mushak to'qimalarining qisqarishi, energiya sarfi, asab-mushak bog'lanishi;
6. **Endokrin tizim fiziologiyasi** – ichki sekretiya bezlari faoliyati, gormonlar ta'siri va organizmdagi muvozanatni saqlashdagi roli [1; 4–5-b.].

Shuningdek, hozirgi zamon fiziologiyasida quyidagi yo'nalishlar rivoj topmoqda:

1. **Molekulyar fiziologiya** – hujayra darajasida kechadigan jarayonlar;
2. **Genetik fiziologiya** – irsiylik va fiziologik funksiyalar o'rtasidagi bog'liqlik;
3. **Ekologik fiziologiya** – organizmning tashqi muhitga moslashuv mexanizmlari [2].

“Odam va hayvonlar fiziologiyasi” fani o'zining mazmuni va funksional vazifasi bilan biologiya va tibbiyot fanlari o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi. Biologiya fanlari hayotiy jarayonlarning nazariy asoslarini tushuntirsa, tibbiyot fanlari ushbu bilimlarni klinik va amaliy jihatdan qo'llashga qaratilgan. Fiziologiya esa ushbu ikki yo'nalish o'rtasida tayanch bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, sog'liqni saqlash, farmakologiya, psixologiya, sport tibbiyoti va boshqa tibbiy yo'nalishlarda fiziologik bilimlar muhim ahamiyatga ega. Masalan, yurak ishemiyasi yoki gipertoniya kabi kasalliklarni to'g'ri tushunish uchun yurak va qon aylanish tizimining normal ishlash mexanizmini bilish zarur. Shu nuqtai nazardan, fiziologiya – har qanday tibbiy xulosaning nazariy poydevori hisoblanadi [8; 714–788-p.].

Bundan tashqari, fiziologik bilimlar biologiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida ham katta ahamiyatga ega. Chunki o'quvchilarga nafaqat anatomik tuzilish, balki organlar faoliyati va ularning boshqarilish mexanizmlarini ilmiy asosda tushuntirish uchun o'qituvchi chuqur fiziologik bilimlarga ega bo'lishi zarur. Bu esa biologik jarayonlarning hayot bilan bog'liqligini anglashga yordam beradi, o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi, ekologik tafakkur va gigiyenik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi [4]. Shu sababli “Odam va hayvonlar fiziologiyasi” fanining o'rni oliy ta'lim tizimida fundamental fanlar qatorida turadi. U talabaning biologik tafakkurini shakllantirish, hayotiy jarayonlarga ilmiy yondashishni o'rgatish va kasbiy faoliyatga puxta tayyorgarlik ko'rishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. “Odam va hayvonlar fiziologiyasi” fani oliy ta'lim tizimida, ayniqsa pedagogika, biologiya, tibbiyot, veterinariya va sport yo'nalishlarida asosiy o'quv predmetlaridan biri hisoblanadi. Uning o'qitilishi nafaqat fanlararo integratsiyani ta'minlaydi, balki kasbiy tayyorgarlik jarayonining muhim bosqichi sifatida ham qaraladi [1; 5-b.].

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida biologiya yo'nalishi talabalari uchun fiziologiya fani nafaqat majburiy, balki kasbiy kompetensiyalarni shakllantiruvchi fundamental fan sifatida ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak biologiya o'qituvchisi inson va hayvon organizmidagi fiziologik jarayonlarni chuqur anglab, uni o'quvchilarga ilmiy hamda didaktik asosda yetkazishga tayyor bo'lishi kerak. Fiziologiya fanining o'qitilishida quyidagi maqsadlar belgilangan:

- talabalarining ilmiy-tahliliy tafakkurini rivojlantirish;
- murakkab biologik jarayonlarni sxematik va funksional jihatdan tushuntirish;



- laboratoriya tajribalarini tahlil qilish va natijalarni izohlash;
- sog'lom turmush tarzini targ'ib etish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish ^[8].

Shu bois, "Odam va hayvonlar fiziologiyasi" fani fiziologiya o'qituvchisini tayyorlashda fundamental tayanch fan sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy shakllanishida fiziologiyaning o'rni beqiyosdir. Fiziologik bilimlar organizmning muvozanat holatini (homeostazni) tushunish, kasalliklarning patofiziologik mexanizmlarini anglash, sog'liqni muhofaza qilish va profilaktika bo'yicha ongli qarorlar qabul qilish hamda fanlararo bilimlarni birlashtirish kabi kompetensiyalarni shakllantiradi ^[3]. Tibbiyot, sport va fiziologiya sohalarida tahsil olayotgan talabalar uchun fiziologiya amaliy faoliyatda hal qiluvchi bilim manbai hisoblanadi. Masalan, sport ta'lim yo'nalishida yurak urishi, nafas olish chastotasi, mushaklarning ishg'a moslashuvi kabi fiziologik ko'rsatkichlarga asoslanib mashg'ulot dasturlari tuziladi. Veterinariya sohasida esa hayvonlarda fiziologik normani bilmasdan tashxis qo'yish yoki davolash choralari ishlab chiqish imkonsizdir ^[2].

Biologiya fani umumta'lim maktablarida o'rgatiladigan asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Mazkur fanni o'rgatuvchi pedagogda tananing tuzilishi va funksional faoliyati haqidagi sistematik hamda ilmiy asoslangan bilimlar bo'lishi lozim. O'qituvchi nafaqat fan mazmunini to'g'ri yetkazishi, balki o'quvchilarning fikrlash madaniyati va sog'lom turmush tarzi haqidagi tushunchalarini shakllantirishi kerak. Bu jarayonda "Odam va hayvonlar fiziologiyasi" fani o'ziga xos tarbiyaviy va integrativ rol o'ynaydi: organizmni turli darajalarda tahlil qilish, fiziologik normani patologik holatlardan ajratish, kuzatish, tahlil qilish hamda eksperiment natijalarini baholash malakalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, dars jarayonida fiziologiya fani orqali interfaol metodlar, muammo asosli o'qitish, laboratoriya ishlari, hayotiy misollar orqali bilim berish kabi zamonaviy pedagogik yondashuvlar uchun keng imkoniyat yaratiladi ^[4]. "Odam va hayvonlar fiziologiyasi" fani oliy ta'lim jarayonida faqat biologik bilimlar beruvchi fan emas, balki kompleks ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshiruvchi didaktik tizim sifatida qaraladi. Uning didaktik ahamiyati shundaki, mazkur fan orqali talabalar turli murakkab hayotiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish, o'z mustaqil fikrini shakllantirish va real hayot bilan bog'lash ko'nikmalarini egallaydilar.

Fanning o'qitilishida nazariy materiallar bilan amaliy mashg'ulotlar uyg'unlikda olib boriladi. Fiziologik jarayonlarning tushuntirilishi nazariy bilimlar asosida boshlanadi, biroq ularni to'liq anglash, tushunish va mustahkamlash uchun laboratoriya mashg'ulotlari, tajribalar, kuzatuvlar va modellash ishlari bilan mustahkamlanadi. Bu esa nazariy tushunchalarni konkret jarayonlar orqali amaliyotda qo'llash, tajriba asosida xulosa chiqarish va ilmiy mulohaza yuritish imkonini beradi. Misol uchun, yurakning qisqarish mexanizmini faqat matndan o'qish emas, balki uni stetoskop orqali eshitish, EKG chizig'ini tahlil qilish yoki laboratoriya modelida kuzatish orqali o'rganish talabani chuqur o'zlashtirishga olib keladi. Shunday yondashuv talabalarida mustahkam bilim bazasini hamda professional faoliyatga tayyorgarlikni shakllantiradi.

Fiziologiya fani har bir tizimning faoliyatini tahlil qilishni, jarayonlarning sababi va oqibatini aniqlashni talab etadi. Bu esa talabani tahliliy fikrlashga, mantiqiy xulosalar chiqarishga, ma'lumotlarni solishtirishga va ilmiy asosda fikr yuritishga o'rgatadi. O'qitish jarayonida kuzatuvlar, grafik va sxemalar bilan ishlash, real vaqt rejimida fiziologik o'zgarishlarni qayd etish kabi amaliy usullar qo'llanilishi orqali talabaning kuzatuvchanlik va muammo yechishga yo'naltirilgan tafakkuri rivojlanadi. Bu esa nafaqat fan doirasida, balki hayotdagi turli muammolarga yondashishda ham foydali ko'nikmalarni beradi. "Odam va hayvonlar fiziologiyasi" fanining o'qitilishi talabalarida sog'liq, ovqatlanish, dam olish, gigiyena, jismoniy faollik va stress bilan kurashish kabi hayotiy jihatdan muhim bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi. Talaba o'z tanasi va uning imkoniyatlari haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'ladi, bu esa sog'lom turmush tarzini shakllantirishda asosiy vositaga aylanadi. Misol uchun: yurak-qon tomir tizimi faoliyatining qanday omillar bilan bog'liqligi, zararli odatlarning organizmga salbiy ta'siri, stress holatining fiziologik oqibatlari, gigiyenik odatlarning immunitetga ta'siri kabi bilimlar orqali talabalar sog'liqni saqlash madaniyatini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, fan hayotga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi. Talaba organizmni faqat ilmiy obyekt sifatida emas, balki inson hayoti va salomatligi bilan chambarchas bog'liq tizim sifatida anglay boshlaydi. Bu esa uning kasbiy va shaxsiy shakllanishida ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'limda "Odam va hayvonlar fiziologiyasi" fanining o'qitilishi nafaqat ilmiy bilim berishga, balki kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi didaktik vosita sifatida qaraladi. Kompetensiyaviy yondashuvga ko'ra, har qanday fan talabaning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni tizimli tarzda shakllantirishi kerak ^[5; 45-49-b.]. Mazkur fan orqali talabalar nafaqat biologik jarayonlarni bilib olishadi, balki o'z kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan analitik fikrlash, muammoni hal qilish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish



va ekologik madaniyat kabi ko'nikmalarga ham ega bo'ladilar. Fiziologiya fanining asosiy vazifalaridan biri – murakkab biologik jarayonlarni sabab-oqibat bog'liqligida tahlil qilishga o'rgatishdir. Har bir tizimdagi o'zgarishlar, ularning organizmga ta'siri, biror jarayonning buzilishi qanday boshqa tizimlarga ta'sir ko'rsatishini anglash orqali talabada tizimli va kompleks fikrlash shakllanadi. Masalan, nafas olish tizimidagi muammo (kislorod yetishmovchiligi) yurak-qon tomir, asab tizimi va moddalar almashinuvi jarayonlariga qanday ta'sir ko'rsatishini fiziologik jihatdan tahlil qilish talabani ilmiy tahlil qilish malakasini mustahkamlaydi ^[1]. Shuningdek, laboratoriya ishlari orqali talabalar kuzatuv olib boradi, eksperimentlar o'tkazadi, natijalarni grafik va jadvallar orqali tahlil qiladi. Bu esa ularni amaliyotga tayyorlaydi va ilmiy tahlil madaniyatini shakllantiradi ^[6; 73–78-b.].

Inson organizmi – murakkab, o'zaro bog'liq tizimlardan tashkil topgan biologik tuzilma. Fiziologiya fani organizmni strukturaviy va funksional birliklar orqali o'rganishga imkon beradi. Har bir tizimni alohida emas, balki tashqi va ichki omillar bilan o'zaro aloqada o'rganish tamoyili talabalarda tizimli yondashuvni shakllantiradi. Bu kompetensiya klinik tafakkurni rivojlantiradi (ayniqsa tibbiy-biologik yo'nalishlarda), murakkab holatlarni sababiy bog'liqlikda anglashni o'rgatadi, organizmning moslashuv, kompensatsiya, stress va adaptatsiya mexanizmlarini tahlil qilishga yordam beradi. Shu yo'sinda o'quvchi fan doirasida murakkab tizimlararo bog'liqlikni ko'ra oladigan, uni tushuntira oladigan va baholay oladigan mutaxassis sifatida shakllanadi ^[7]. Fiziologik bilimlar orqali talaba nafaqat ichki biologik tizimlar haqida, balki atrof-muhit omillari va inson salomatligi o'rtasidagi bog'liqlik haqida ham tushunchaga ega bo'ladi. Bu esa ekologik va gigiyenik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan: atmosfera ifloslanishi nafas olish tizimiga qanday ta'sir qiladi? ichimlik suvi gigiyenasi buzilganda organizmda qanday fiziologik o'zgarishlar yuz beradi? muvozanatsiz ovqatlanishning endokrin tizimga ta'siri qanday bo'ladi? Mazkur savollarni tahlil qilish orqali talaba sog'liqni saqlash va profilaktika borasida ongli qaror qabul qiluvchi, sog'lom turmush tarzi targ'ibotchisi sifatida shakllanadi ^[9]. Shuningdek, o'qituvchi sifatida u keyinchalik o'quvchilarga ham shunday ongni singdirish, ekologik mas'uliyat va sanitariya madaniyatini targ'ib qilish imkoniga ega bo'ladi. Demak, bu fan orqali ekologik savodxonlik, ijtimoiy mas'uliyat va gigiyenik madaniyat kabi zamonaviy talabalar mos kompetensiyalar shakllantiriladi.

Bizningcha, “Odam va hayvonlar fiziologiyasi” fanini o'qitish orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar – bu nafaqat mazkur fan bo'yicha faktologik bilimlarni o'zlashtirish, balki talabalarining kasbiy va shaxsiy rivojiga xizmat qiluvchi chuqur funksional ko'nikmalar to'plamidir. Bu kompetensiyalar ichki biologik jarayonlarni anglashdan tashqari, real hayotda uchraydigan fiziologik muammolarni tahlil qilish, ularning sabab va oqibatini tushunish, profilaktika choralarini ishlab chiqish va bu boradagi bilimlarni boshqalarga yetkazish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Fan talabalarda o'z tanasi va atrofidagi biologik muhitga nisbatan ongli, mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi. Bu esa, o'z navbatida, sog'lom turmush tarziga amal qilish, gigiyena va ekologik madaniyatni chuqur anglash hamda shaxsiy hayot sifatini boshqarish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Fanning mazmuni – hujayradan tortib butun organizm tizimlarigacha bo'lgan jarayonlarni chuqur tahlil qilishni talab qilgani sababli, talabalarda sistemali fikrlash, mantiqiy tahlil, ilmiy asoslangan qaror qabul qilish, kuzatuvchanlik va eksperiment asosida xulosa chiqarish qobiliyatlari shakllanadi. Shuningdek, bu fan orqali talabalar hayotiy muammolarga multidisiplinar nuqtai nazardan qaray olishni o'rganadilar. Masalan, yurak-qon tomir kasalliklarining kelib chiqish mexanizmlarini tushunib, ularni oldini olish choralarini ishlab chiqish yoki endokrin buzilishlar va ularning salomatlikka ta'siri bo'yicha sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik kabi profilaktik yondashuvlarni asoslash bu kompetensiyalarni amaliy hayotga tatbiq qilish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim tizimida “Odam va hayvonlar fiziologiyasi” fanining o'qitilishi nafaqat biologik jarayonlarni o'rgatish, balki talabalarda kasbiy va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Fanning o'quv jarayonidagi zarurligi, avvalo, inson va hayvon organizmidagi murakkab fiziologik mexanizmlarni chuqur tushuntirish imkoniyati bilan belgilanadi. Bu esa talabalarni nafaqat nazariy bilim, balki amaliyotda qo'llaniladigan real ko'nikmalar bilan ham qurollantiradi. Fanning didaktik ahamiyati shundaki, u orqali talabalarda tizimli tahlil qilish, kuzatuvchanlik, mantiqiy fikrlash va sabab-oqibat bog'liqliklarini tushunish kabi yuqori darajadagi tafakkur ko'nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga, bu fan hayotiy ehtiyojlarga mos kompetensiyalar – sog'liqni saqlash, atrof-muhit ta'sirlarini baholash, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga oid qarorlar qabul qilish kabi ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Natijada, u zamonaviy oliy ta'limning ajralmas va strategik fanlaridan biriga aylanadi.

Zamonaviy ta'lim sharoitlarida “Odam va hayvonlar fiziologiyasi” fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar joriy etilishi zaruratga aylanmoqda. An'anaviy ma'ruzalar va laboratoriya mashg'ulotlari bilan bir qatorda interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, modellash, diagnostik platformalar hamda vizualizatsiya vositalarining o'quv jarayoniga tatbiq etilishi fan mazmunining samarali o'zlashtirilishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, tanadagi fiziologik jarayonlarni real vaqtda kuzatish imkonini beradigan texnologiyalar talabada fanga nisbatan nafaqat bilimiy, balki emotsional va motivatsion yondashuvni ham shakllantiradi. Shuningdek, fan mazmunini rivojlan-



tirishda uni boshqa fanlar bilan integratsiyalash – masalan, bioinformatika, biokimyo, genetika, ekologiya bilan uyg'unlashtirish orqali talabalarning kompleks fikrlash doirasini kengaytirish mumkin. Bu esa fanni zamonaviy ko'p fanli (multidisciplinar) yondashuvlar asosida o'qitishga olib keladi.

Demak, "Odam va hayvonlar fiziologiyasi" fani oliy ta'limda fundamental, amaliy va tarbiyaviy jihatdan yuqori didaktik salohiyatga ega bo'lgan fanlardan biri bo'lib, uni zamon talablari asosida o'qitish, innovatsion metodlar bilan boyitish va kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish bugungi kundagi eng muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Almatov K.T., Allamuratov Sh.I. Odam va hayvonlar fiziologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2004. – 580 b.
2. Anderson M. (2018). Human Physiology: Foundations and Frontiers. Pearson Education.
3. Guyton A.C., Hall J.E. (2020). Textbook of Medical Physiology. 14th edition. Elsevier.
4. Jenkins R. (2017). Science Teaching in the 21st Century: Pedagogical Foundations. Springer.
5. Qodirova R. Kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya o'qituvchilari tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari // Pedagogika fanlari. – Toshkent: TDP, 2020. – №2. – B. 45–49.
6. Tursunov R.M. Fiziologik bilimlarning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rni // Oliy ta'limda fan va innovatsiya. – Toshkent, 2021. – №3. – B. 73–78.
7. Sherwood L. Human Physiology: From Cells to Systems. – 9th ed. – Boston: Cengage Learning, 2015. – 928 p.
8. Sherwood L. (2015). Human Physiology: From Cells to Systems. Cengage Learning.
9. World Health Organization (WHO). Health education: theoretical concepts, effective strategies and core competencies. – Geneva: WHO Press, 2022. – 56 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.